

## TURIZMNING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI VA UNI O'RGANISHGA BAG'ISHLANGAN NAZARIY QARASHLAR EVOLYUTSIYASI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizm xizmatlariga bo'lgan ilmiy yondashuvlarning evolyutsiyasi, zamonaviy nazariy paradigmalar va kontseptual yondashuvlar asosida o'rganiladi. Maqolada turizm xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, ularni tasniflash usullari hamda bu sohadagi xizmatlar sifatini belgilovchi omillar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, globalizatsiya va raqobat muhitida turizm xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyalari, zamonaviy ilmiy qarashlar asosida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm xizmatlari, xizmat ko'rsatish sohasi, nazariy yondashuvlar, iqtisodiy rivojlanish, xizmatlar sifati, globalizatsiya, turizm industriyasi, xizmatlar evolyutsiyasi.

**Kirish:** Turizm xizmatlari sohasi insonlarning rivojlanishi va turmush darajasi, bo'sh vaqtini samarali tashkil qilish, ijtimoiy muhitni mustahkamlash bilan uzviy bog'liq bo'lgan faoliyatligi uning ustuvor sohaga aylanishiga imkon bermoqda. Turizm xizmatlari sohasi jahon xo'jaligida iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan, rentabelligi yuqori faoliyat sifatida, global taraqqiyotning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan holda, so'nggi o'ttiz yil ichida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylandi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili:** Turizm xizmatlari tushunchasi murakkab, ko'pqirrali bo'lib, so'nggi yillarda chop etilayotgan ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda va lug'atlarda uning nazariy asoslari turlicha ta'riflanmoqda. Jumladan, turizim xizmatlari - turistlarning ehtiyojlarini qondirish va ta'minlashga qaratilgan, xizmat sohasidagi bir maqsadga yo'naltirilgan harakatlar to'plami sifatidagi qarashlar ustun bo'lgan holda, XX asr oxiri va XXI asr boshlaridan boshlab ko'proq aholiga sayohat va dam olishiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoq haqidagi tasavvurlarga urg'u berilmoqda.


Misol uchun Rossiyalik iqtisodchi - olimlar A.S.Kuskov va Yu.A. Djaladyan "Turizm asoslari" nomli darsligida "Turizmdagi xizmat - bu turizm kompaniyalarining turistik mahsulotni yaratishdagi faoliyatining asosiy qismi hamda natijasi" ekanligini ta'kidlaydi<sup>1</sup>.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Tadqiqotning maqsadi turizm xizmatlari tushunchasi va uni o'rganishga bag'ishlangan nazariy qarashlar evolyutsiyasinin ishlab chiqish bo'lganligi uchun uni yoritish davomida induksiya va deduksiya, tizimli va mantiqiy tahlil usullaridan samarali foydalananilgan.

**Tahlil va natijalar:** Iqtisodiyotda kechayotgan tarkibiy o'zgarishlar tufayli, iqtisodiyotning turli taqrmoqlarida yuzaga kelayotgan muammolarga faqat iqtisodiy nuqtai nazardan emas, balki ijtimoiy taraqqiyot nuqtai nazaridan qarash lozim bo'lmoqda. Bu o'z navbatida turizmdek sohalarni jadal rivojlantirishni kun tartibiga qo'yemoqda.

Globallashuv sharoitida, turizm sohasi o'zida turistik xizmatlarni birlastiruvchi iqtisodiyotning yirik tarmog'iga aylanib bormoqada. Turizm xizmatlarining ko'p qirrali iqtisodiy ahamiyati ikkiyoqlama natijalarni ifodalaydi. Bir tomonidan, aholining ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirsa, ikkinchi tomonidan, mamlakat nomoddiy boyligining o'sishini ta'minlaydi (1.1.1-rasm).

<sup>1</sup> А.С. Кусков. Ю.А. Джададян. Основы туризма : учебник. - М.: КНОРУС, 2008. – 316 с. (400 с.)



### 1.1.1-rasm.Turizm xizmatlarining iqtisodiy mazmuni<sup>1</sup>

Iqtisodiy munosabatlar tizimida har bir jonli mehnat turi, aniq bir tovar va xizmatni yoki uning ba'zi bir qismini yaratishga bag'ishlanadi. Turizm xizmatlari to'g'ridan - to'g'ri insonlarga ularning farovonligiga qaratiladi.

Turizm xizmatlari - iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritib, turistlarning moddiy-maishiy va ijtimoiy-madaniy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. Turistik xizmatlar majmui turistik faoliyat subyektlarining joylashtirish, ovqatlantirish, transport, axborot-reklama, gid tarjimonlik xizmatlari kabi ko'plab xizmatlarni o'ziga birlashtirib, turizm industriyasini hosil qiladi (1-ilova).

Turizm xizmatlari ehtiyojlarning qondirilishiga muvofiq ikkiga moddiy-maishiy va ijtimoiy-madaniy xizmatlarga bo'linadi. Moddiy-maishiy turistik xizmatlarga turistlarni joylashtirish, ovqatlantirish, transport xizmatlari kabi moddiy ko'rinishdagi xizmatlar majmuini kiritishimiz mumkin. Ijtimoiy-madaniy xizmatlarga kishilarni ma'naviy oziqrantiruvchi, tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan tanishtirish va ko'ngil ochar tomoshalarini keltirish mumkin (1.1.2-rasm).



### 1.1.2-rasm. Turizm xizmatlarining ehtiyojlar qondirilishiga ko'ra guruhanishi<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

<sup>2</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

Turistik xizmatlar o‘z navbatida turistik mahsulot hisoblanadi. Turistik mahsulot -turistik bozor kon'yukturasidan kelib chiqqan holda yoxud turistning yoki ekskursantning buyurtmasiga ko‘ra turoperator tomonidan shakllantiriladigan, turistning va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun zarur bo‘lgan turistik xizmatlar majmuidir<sup>1</sup>.

Odatda turizm xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoj shaxsning holati, odamlar jamoasi, muhit va insonning ahvoliga, uning xarakteriga, sog‘lig‘iga, yoshiga, moliyaviy imkoniyatlariga, atrofdagi jamoaga, umumiy, diniy, iqtisodiy, jismoniy va boshqa madaniyat turlariga bog‘liq bo‘ladi. Ehtiyojlar ularni qondirish uchun motivlarni rag‘batlantiradi, bu faqat kundalik bo‘lmagan yashash joylariga real harakatlanish orqali yuzaga kelishi mumkin.

Turistik xizmat - bu maqsadga muvofiq ishlab chiqarish faoliyati bo‘lib, uning asosiy xususiyati ishlab chiqarish, sotish va iste’mol qilish jarayonlarining vaqt va makonda bir-biriga mos kelishidir. Shunday turistik xizmatlar bor faqatgina ma’lum bir mavsumda iste’mol qilinadi.

Turizm xizmatlari xilma-xil bo‘lib u amalda tobora ortib bormoqda. Shuning uchun turizm xizmatlari haqida kengroq tessavvurga ega bo‘lish uchun uning muhim tasnifiy belgilarini aniqlab olish zarur. Turizm statistikasi bo‘yicha hujjatlar quyidagi tipik turistik xizmatlar ro‘yxatini taqdim etadi:

- 1) Turar joy xizmatlari;
- 2) Ovqatlanish xizmatlari;
- 3) Yo‘lovchi tashish xizmatlari;
- 4) Sayyohlik agentliklari xizmatlari;
- 5) Madaniy xizmatlar;
- 6) Dam olish va boshqa ko‘ngil ochar xizmatlar;
- 7) Turli moliyaviy va boshqa turistik xizmatlar.

Umumiy holda turistik xizmatlar iste’mol qilish nuqtayi nazaridan ikki turga asosiy va qo‘srimcha xizmatlarga bo‘linadi. Bu kabi xizmatlar bevosita iste’mol jarayonida yuzaga keladi va bir-biridan farqlanadi.

Turistik asosiy xizmatlar, qo‘srimcha xizmatlar va turistik tovarlar birgalikda turistik mahsulotlarni tashkil qiladi. Turistik mahsulot - turistlarning u yoki bu talabini qondiradigan va ular tomonidan to‘lanadigan har qanday xizmat ko‘rsatish turi hisoblanadi.

Turpaketga kiritgan xizmatlar asosiy xizmatlar bular: tashish, joylashtirish, ovqatlanishirish va boshqa shu kabi xizmatlardan iborat bo‘ladi (1.1.3-rasm). Asosiy turistik xizmatlar sayohatni boshlashdan oldin sotib olingan rejlashtirilgan bo‘ladi.




### **1.1.3-rasm. Asosiy turistik xizmatlar tarkibi<sup>2</sup>**

Turpaketga kiritilmagan turistning sayohat davomida o‘zining qo‘srimcha to‘lovi asosida iste’mol qilinadigan xizmatlarga qo‘srimcha xizmatlar tushiniladi. Qo‘srimcha turistik

<sup>1</sup> N.M.Umurzakova, D.R.Rustamova, A.Muzaffarov. Turizmning huquqiy asoslari. O’quv qllanma.-T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 - 43 b.

<sup>2</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

xizmatlardan turist ikki xil vaziyatda foydalanadi. Turpaketda ko'rsatilgan xizmatlardan bo'shaganda va qo'shimcha ehtiyojlar paydo bo'lganida. Qo'shimcha turistik xizmatlarda to'lov-xizmatdan foydalanish jarayonida amalga oshiriladi. Bu kabi xizmatlar tarkibiga bank, ijara, sartarosh, hamom, kosmetika, kiyim-kechaklarni tozalash va dazmollash kabi xizmatlar kiradi (1.1.4-rasm).



#### **1.1.4-rasm. Qo'shimcha turistik xizmatlar tarkibi<sup>1</sup>**

Butunjahon turizm tashkiloti qo'shimcha turistik xizmatlarning 400 turini keltirib o'tgan. Qo'shimcha turistik xizmatlarning ahamiyati shundaki, unda turist yuzaga kelgan ehtiyojlarni to'laqonli qondiradi, ma'lum bir ishlarni bajarishda o'zini urintirmaydi (misol uchun, mehmonxonada kiyimini tozalatish, dazmolatish). Turist qo'shimcha turistik xizmatlar tufayli to'la dam olishga erishadi. Natijada o'z sayohatidan ko'ngli to'ladi<sup>2</sup>.

Turizm xizmatlarini iste'mol yoki taklif nuqtai nazaridan yakka va guruhiy xizmatlarga bo'lishimiz mumkin. Yakka xizmatlar alohida ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan, tibbiy, sartarosh, ijara kabi xizmatlarni keltirishimiz mumkin. Guruhiy xizmatlariiga ko'pchilikning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan masalan, bularga ovqatlantirish, joylashtirish xizmatlari, transport xizmatlari misol bo'la oladi. Bularning orasida chegara belgilash ancha mushkul.

Turizm xizmat ko'rsatish sohasining tashkil etuvchisi sifatida o'z xususiyatlariiga va funksiyasiga ega bo'lib, bu uni xo'jalik yuritishning avtonom sohasi ekanlgini belgilaydi (1.1.5-rasm).

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

<sup>2</sup> M.E.Po'latov, Q.J.Mirzayev, Sh.A.Sultonov, E.Shavqiyev Global iqtisodiy rivojlanish. Turizm iqtisodiyoti. - "Fan va texnologiya", 2018. - B 28



### 1.1.5-rasm. Turizm xizmatlarining muhim xususiyatlari<sup>1</sup>

Turistik xizmatlarning muhim xususiyatlaridan biri, turizm sohasida iqtisodiy manfaatga tezroq erishish mumkin. Shu tomoni borki, ayrim xizmatlar mavsumiylik xususiyatiga ega bo'lib, ma'lum vaqtidan keyin keraksiz bo'lib qoladi, tadbirkorlar ko'rsatilayotgan xizmatlarining sifati va arzonligi evaziga mijozlarni yillab yig'ishi mumkin va aksincha bir kunda yo'qotishi ham mumkin.

Zamonaviy bozor ishlab chiqarishida turizm xizmatlari juda katta o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, aholining qandaydir bir ehtiyoji qondiriladi va mehnat qilish jarayonida uning natijasi namoyon bo'ladi.

Turizm xizmatlarining alohida xususiyatlaridan biri shuki, ayrim turistik xizmat turlari sifatini aniqlashning ikki jihat farqlanadi. Masalan, umumi ovqatlanish, maishiy xizmat ko'rsatishda xizmat sifati bilan birga, mahsulot sifati ham e'tiborga olinadi. Shuningdek, turizm sohasi xodimlari alohida shaxslar bilan muloqotda bo'lib, har xil toifadagi, har xil diddagi insonlarning so'rovlariga javob beradi. Bu esa xodimlardan yuksak sifatli kasb mahoratini talab qiladi.

Turizm xizmatlarining yana bir tez rivojlanishiga sabab bo'layotgan xususiyati shundan iboratki, eksport qilingan turistik xizmatlar chetga chiqib ketmaydi, balki, mamlakatning o'zida iste'mol qilinadi. Turmahsulot iste'molchisi turmahsulotgacha bo'lgan masofani o'zi bosib o'tib keladi.

Ehtiyojning vaqtinchalik nobarqarorligi, ehtiyoj yuqori bo'lgan davrda xizmat sifatining saqlanishini muammoli qilib qo'yadi. Ko'p narsalar xizmat ko'rsatish vaqtida uni rad etish holatiga bog'liq bo'ladi. Bugun ko'rsatilgan sifatli xizmat ertaga sifatsizga aylanishi mumkin.

Odatda mahsulotlarning yaratilishi va ehtiyojlarning qondirilishi bir vaqtning o'zida yuz bermaydi, chunki iste'mol ishlab chiqarishdan so'ng keladi. Ammo turistik xizmatlar ko'rsatishda shunday xizmatlar borki, ularning yaratilishi ayni vaqtning o'zida ehtiyoj qondirilishini bildiradi.

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

O‘z navbatida ehtiyojlarning vujudga kelishiga avvalo, yaratilayotgan xizmatlarning o‘zi sabab bo‘ladi.


Yuqoridagilardan kelib chiqib, turistik xizmatlarning hilma-xilligi bilan ularning barchasini umumiy xususiyatlarga birlashtirish mumkin (1.1.6-rasm).

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda aholi daromadlarining va bunga bog‘liq holda ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarining o‘sishi turizm sohasining rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Turizm sohasining ixtisoslashishi, yiriklashishi, yangi turning tashkil topishi iqtisodiyotni boyitgan holda ishlab chiqarish darajasining o‘sishini ham ta’milamoqqa.

Turizm xizmatlarining o‘ziga xos talqini uning mamlakat ijtimoiy hayotini rivojlantirish kabi muhim maqsadi va quyidagi vazifalarini aniqlash imkonini beradi:

**birinchidan**, iqtisodiy vazifasiga muvofiq, milliy daromadning shakllanishini, ish bilan bandlik va ishchi kuchinini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda ishtirot etib mehnatni rag‘batlantiradi;

**ikkinchidan**, ijtimoiy vazifasiga ko‘ra, milliy qadriyatlar, an’analarni tiklaydi va davomiyligini ta’milaydi, ijtimoiy mulkni mustahkamlaydi va qo‘riqlaydi, inson shaxsini taraqqiy ettiradi;



**1.1.6-rasm. Turizm xizmatlarining umumiy xususiyatlari<sup>1</sup>**

**uchinchidan**, siyosiy vazifasiga ko‘ra, insonlarning yashashdan qoniqishi, birlashish va ijtimoiy muhitning yaxshilanishini, kishilarning dam olish huquqlarini amalga oshiradi;

**to‘rtinchidan**, turizm insonlarning muloqot qilish va axborot almashishida, madaniy aloqalarning o‘rnatalishida kommunikativ vazifasini bajaradi;


**beshinchidan**, umumlashtirish vazifasiga ko‘ra, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analalar va tarixiy tajribalarni o‘rganish hamda umumlashtirish orqali milliy mafkuraning shakllanishini ta’milaydi;

**oltinchidan**, ekologik vazifasiga muvofiq, kishilarda tabiiat va atrof muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish orqali tabiiy resurslarning betalafot saqlanishini ta’milaydi.

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

Turizm xizmatlarining asosiy maqsadi aholi turush darajasini oshirish va iqtisodiyotning muvozanatli va mutanosibli rivojlanishida, turizm sohasini milliy iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga aylantirishdan iborat.

Turizm xizmatlarining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uning amal qilishidagi asosiy yo‘nalishlarini jtimoiy maqsadlardagi, iqtisodiy maqsadlardagi va siyosiy-huquqiy maqsadlardagi muhim faoliyat yo‘nalishlariga ajratib o‘rganish mumkin (1.1.7-rasm).



#### 1.1.7-rasm. Turizm xizmatlarining maqsad va vazifalariga ko‘ra amal qilish yo‘nalishlari<sup>1</sup>

Dastlabki paytlarda turizm xizmatlari oddiy va uncha ko‘p bo‘lmagan shakllarda karvon saroylarda va boshqa holatlarda taqdim qilingan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, jamiyat taraqqiy etishi jarayonida turistik xizmatlar ko‘lami ham kengayib rivojlanish tendensiyasiga ega bo‘lib bormoqda.

Zamonaviy sharoitlarda turistik xizmatlar sayohat davomida turistlarning barcha ehtiyojlarini qondirishga, ta’minalashga qaratilgan va xizmat ko‘rsatish sohasidagi aniq maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar to‘plami bo‘lib, ular turizm maqsadlariga, turiga va turistik xizmatlarning qanday yo‘naltirilganligiga to‘la javob berishi kerak<sup>2</sup>.

Turizm asosida ikki subtizm: turizm sub’ekti va turizm ob’ekti. Turizm sub’ekti sifatida o‘ziga xos bo‘lgan turistik ximatlardan foydalanib o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini izlovchi tadbir qatnashchisi, ya’ni turist tushuniladi. Taklif etiladigan xizmatlar esa turizm ob’ekti sifatida namoyon bo‘ladi. Sayohat maqsadi bo‘lishi mumkin bo‘lgan hamma narsa turizm ob’ekti sifatida tushuniladi<sup>3</sup>.

Turizm xizmatlariga talab aholi daromadlari va bo‘sh vaqtining ko‘payishi, aholida sayohat madaniyatining yuksalishi, vogelikni bilishga, tarixiy- etnografik, tabiat, fan va inqilobiy yodigorliklar, harbiy va mehnat an’analari kabilalar bilan tanishish istagining o‘sishi orqali yuzaga keladi.

Turizm xizmatlari tushunchasi murakkab, ko‘pqirrali bo‘lib, so‘nggi yillarda chop etilayotgan ko‘pgina iqtisodiy adabiyotlarda va lug‘atlarda uning nazariy asoslari turilcha ta’riflanmoqda. Jumladan, turizm xizmatlari - turistlarning ehtiyojlarini qondirish va ta’minalashga qaratilgan, xizmat sohasidagi bir maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar to‘plami

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

<sup>2</sup> Sh.S. Sayfutdinov, M.Z.Nurfayziyeva, F.N.Xalimova. -T.: “IQTISODIYOT”, 2019. – B. 52

<sup>3</sup> I.S.Tuxliyev, Z.O.Raximov “Turizm xizmatlar bozori”. O‘quv qo‘llanma. Samarqand. – 2018. – 12 b. (280)

sifatidagi qarashlar ustun bo‘lgan holda, XX asr oxiri va XXI asr boshlaridan boshlab ko‘proq aholiga sayohat va dam olishiga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoq haqidagi tasavvurlarga urg‘u berilmoqda.

Misol uchun Rossiyalik iqtisodchi - olimlar A.S.Kuskov va Yu.A. Djaladyan “Turizm asoslari” nomli darsligida “Turizmdagi xizmat - bu turizm kompaniyalarining turistik mahsulotni yaratishdagi faoliyatining asosiy qismi hamda natijasi” ekanligini ta’kidlaydi<sup>1</sup>.

L.V.Staxovaga ko‘ra, turizm xizmatlari - bozor segmenti sifatida, umumiyligida ovqatlanish, transport, mehmondo‘stlik industriyasi, savdo va madaniyat kabi xizmatlarni taklif qiluvchi turli tarmoqlarni birlashtiruvchi majmuadan iborat<sup>2</sup>.

Turizm xizmatlari tushunchasiga M.B. Birjakov quyidagi ta’rifni beradi: “Turistik xizmat - bu xizmat ko‘rsatish sohasida maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar to‘plami bo‘lib, u sayyoh va ekskursantlarning ehtiyojlarini ta’minalash va qondirishga qaratilgan, turizm maqsadlariga, turistik xizmatning xususiyatlari va yo‘nalishiga mos keladi hamda umumiyligida insoniyat axloqi va tartib-qoidalariga zid bo‘lmaydi”<sup>3</sup>.

A.A.Zayas o‘zining ilmiy taddiqot ishida turizm xizmatlari sohasining faoliyati ma’lum bir institutlashgan muhitda amalga oshiriladi, bu esa turistik destinatsiyaning resurs salohiyatini shakllantirish va amalga oshirishga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday o‘zaro ta’sir jarayoni, ushbu sohaning samarali ishlashi uchun tadbirkorlik madaniyati qonun-qoidalariga bo‘ysunishi kerakligini anglatishini ta’kidlaydi<sup>4</sup>.

I.T.Balabanov va A.T.Balabanovlar bildirgan fikrga asosan, turizm xizmatlarini avvalo tovarga qiyoslashadi. Har qanday tovar bo‘lgani kabi uni realizatsiya qilish shart-sharoitlari, talablari, maqsadlari, sotish imkoniyatlari bo‘lishi lozimligini aytishadi. Olimlar turizm xizmatlarini zamonaviy inson ehtiyojlar uchun eng birlamchi tovarlar qatoriga kiritishadi<sup>5</sup>.

Turizm xizmatlari tushunchasi O‘zbekistonlik olimlardan Sh.S. Sayfutdinov, M.Z.Nurfayziyeva, F.N.Xalimova larning fikricha, turistik xizmatlar-turist va ekskursant ehtiyojlarini qondirish va ta’minalashga qaratilgan, xizmat sohasidagi bir maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar to‘plami bo‘lib, ular turizm maqsadlariga, harakteriga va turistik xizmatning qanday yo‘naltirilganligiga javob berishi hamda umuminsoniy tamoilarga qarshi bo‘lmasligi kerak<sup>6</sup>.

M.E.Po‘latov, Q.J.Mirzayev, Sh.A.Sultonov, E.Shavqiyevlarning nazarida, turistik xizmatlar sayohat davomida turistning barcha ehtiyojlarini qondirishga, ta’minalashga qaratilgan va xizmat ko‘rsatish sohasidagi aniq maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar to‘plami bo‘lib, ular turizm maqsadlariga, turiga va turistik xizmatning qanday yo‘naltirilganligiga to‘la javob berishi kerak<sup>7</sup>.

T.B. Sadikov, M.Z. Nurfayziyevalar “Turizm va mehmondo‘stlik” nomli o‘quv qo‘llanmasida turistik xizmat - bu bozor ehtiyojlarini o‘rganish natijasida aniqlangan buyurtmachi bilan muvofiqlashtirilgan xizmatlar va xizmatlarni bajaruvchining imkoniyatlarini hisobga oluvchi talablar yig‘indisidan iboratligini ta’kidlashadi<sup>8</sup>.

M. Amonboyev, D.I.Abidova, N.A.Jurayevalar turizm tovar singari xizmatlar shaklida amalga oshiriladi. Turizm xizmati umuman xizmatlar kabi insonning samarasida aks etuvchi

<sup>1</sup> А.С. Кусков. Ю.А. Джададян. Основы туризма : учебник. - М.: КНОРУС, 2008. – 316 с. (400 с.)

<sup>2</sup> Л. В Стакова. Основы туризма : учебник для вузов. - М.: Издательство Юрайт, 2022. -8 с. (327)

<sup>3</sup> Биржаков М.Б. Введение в туризм. Издание 9-е, переработанное и дополненное. – СПб.: «Издательский дом Герда», 2007.- 576 с.

<sup>4</sup> Заяц А.А. Развитие сферы туристских услуг на основе совершенствования культуры предпринимательства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Донецк, 2023. 29 - С

<sup>5</sup> Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. Учебное пособие. - М.: Финансы и статистика, 2011. – 116 - С

<sup>6</sup> Sh.S. Sayfutdinov, M.Z.Nurfayziyeva, F.N.Xalimova. -T.: “IQTISODIYOT”, 2019. – B. 52

<sup>7</sup> M.E.Po‘latov, Q.J.Mirzayev, Sh.A.Sultonov, E.Shavqiyev Global iqtisodiy rivojlanish. Turizm iqtisodiyoti. - “Fan va texnologiya”, 2018. - B 26

<sup>8</sup> Т.Б. Садиков, М.З. Нурфайзиева. Turizm va mehmondo‘stlik. О‘quv qo‘llanma – Т.: «IQTISODIYOT», 2019. – 104 б. (132 б.)

ma'lum iste'mol qiymatining harakatiga aytildi. Bunda xizmatlar narsa sifatida, ya'ni tovar yordamida yoki jonli mehnatni amalga oshirish jarayonida ko'rinishi mumkinligini bildirishgan<sup>1</sup>.

I.S.Tuxliyev, G.X.Qudratov, M.Q.Pardyevlar hamkorlikda tayyorlagan darslikda turistik xizmat-turistlarni mos ravishdagi ehtiyojlarini qondirish bo'yicha turistik korxona faoliyati natijasi hisoblanadi. Turistik korxonaning ishi barcha sayohatlarni tashkil qilish bilan birga alohida xizmatlarni tashkil qilishi ham mumkinligi ta'riflanadi<sup>2</sup>.

Turizm xizmatlari tushunchasini aniqlashda YU.K.Sultonovaning fikricha, turistik mahsulotlar va xizmatlar deganda, turistlarning ehtiyojlarini qondirish uchun taqdim etiladigan barcha turdag'i xizmatlat tushuniladi. Bunga turli turistik turlar, mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari, transport xizmatlari, ovqatlanish va boshqa ko'ngil ochar xizmatlar kiradi<sup>3</sup>.

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuning 3 -moddasida turistik xizmatlarni - joylashtirish, ovqatlantirish, transport, ekskursiya va maslahat xizmati ko'rsatish bo'yicha xizmatlar, shuningdek turist va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan xizmatlar majmui sifatida tushuntiriladi<sup>4</sup>.

Yuqorida keltirilgan mualliflar turizm xizmatlari ta'rifiga mustaqil yondashib berilgan barcha ta'riflar turlicha bo'lishiga qaramay, o'ziga xoslik va aniqliklar mavjud. Fikrimizcha, ushbu ta'riflar turizm xizmatlarining bugungi kundagi ahamiyatidan kelib chiqib, asl mohiyati va mazmunini faoliyat nuqtai nazaridan to'liq ochib bera olmagan. Aksariyat hollarda turizm xizmatlari ta'rifiga turistlar ehtiyojining qondirilishi jihatdan yondashilgan. Bizning tasavvurimiz bo'yicha, ushbu ta'riflar bir tomonlama tavsifga ega bo'lib, ularda turistik xizmatlar inson ehtiyojidan kelib chiqadigan faoliyat yo'nalishlari yig'indisi sifatida tushunilgan. Ushbu yondashuvda umumjamiat ehtiyojlari nuqtai nazaridan uning jamiyat uchun zarurligi, maqsadi, vazifalaridan kelib chiqqan holda fikr bildirilmagan.

Bugungi kunda turizm xizmatlarining mazmun-mohiyatini ochib berishda an'anaviy ta'riflar etarli bo'lmay qoldi bizningcha, turistik xizmatlar - turist va sayohatchi ehtiyojlarini qondirish va ta'minlashga qaratilgan, xizmat sohasidagi bir maqsadga yo'naltirilgan harakatlar to'plami sifatida, ijtimoiy ne'matlar yaratib, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini saqlash bilan bog'liq bo'lgan faoliyat deb faraz qilsak, turizm xizmatlari ta'rifini faoliyati nuqtai nazaridan to'laroq bayon qilgan bo'lamiz.

### **Xulos va takliflar.**

Turizm xizmatlari tushunchasi va uni o'rganishga bag'ishlangan nazariy qarashlar evolyutsiyasini, turistik xizmatlar vujudga kelishining xususiyatlari va rivojlanish bosqichlarini, hozirgi sharoitda turizm xizmatlari sohasini jadal rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ilmiy-nazariy o'rganish asosida quyidagi xulosaga kelindi. Turistik xizmatlar majmui turistik faoliyat subyektlarining joylashtirish, ovqatlantirish, transport, axborot-reklama, madaniy-maishiy xizmatlar ko'rsatish borasidagi shuningdek, turistlarning ehtiyojlarini qondirish faoliyati bilan shug'ullanuvchi turizm tashkilotining mahsulidan iborat bo'ladi. Turizm xizmatlari ehtiyojlarining qondirilishiga muvofiq ikkiga moddiy-maishiy va ijtimoiy-madaniy xizmatlarga bo'linadi. Moddiy-maishiy xizmatlar ko'proq moddiy tavsifga, ijtimoiy-madaniy xizmatlar nomoddiy tavsifga ega bo'ladi. Turizm xizmatlari iste'mol qilish nuqtayi nazaridan asosiy va qo'shimcha xizmatlarga bo'linadi. Asosiy xizmatlar turpaketga kiritiladi va puli oldindan to'lanadi. Bunday xizmatlar tarkibiga ovqatlantirish, joylashtirish, tashish kabilalar kiradi. Qo'shimcha xizmatlarua sayohat davomida ehtiyoj paydo bo'lishi mumkin. Bu kabi xizmatlar bevosita iste'mol jarayonida yuzaga keladi va bir-biridan farqlanadi. Turizm xizmatlar savdosi tovarlardan farq qilib, asosan ishlab chiqarish va iste'mol bir vaqtida yuz beradi, tovarga o'xshab saqlab bo'lmaydi

<sup>1</sup> M. Amonboyev, D.I.Abidova, N.A.Jurayeva. Turizm iqtisodiyoti va menejmenti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISODIYOT", 2019. - 114 b (226)

<sup>2</sup> I.S.Tuxliyev, G.X.Qudratov, M.Q.Pardyev. Turizmni rejalashtirish. – T.: IQTISOD-MOLIYA, - 32 b (264)

<sup>3</sup> YU.K.Sultonova. Turizm xizmatlar bozorida turistik mahsulotlar va xizmatlar faoliyati tahlili //Qo'qon universiteti xabarnomasi №11. iyun 2024 yil. – 26 b

<sup>4</sup>O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni  
<https://lex.uz/uz/docs/4428097?ONDATE=14.05.2024>

yoki umumlashtirilib boshqa odamga sotib yuborib bo‘lmaydi. Shuning uchun xizmat ko‘rsatuvchi bilan iste’molchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotda bo‘ladilar. Turistik xizmatlarni buyurtma, yoxud mijoz borligida ko‘rsatish mumkinligi bois ularni xizmat ko‘rsatuvchidan ajratishning iloji yo‘q hamda iste’molchilarga ko‘pincha xizmatni taqdim etishning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Turistik xizmatlarning muhim xususiyati shundaki, ularni saqlab, qadoqlab, tashib bo‘lmaydi va ko‘rsatilayotgan xizmat bir vaqtning o‘zida iste’mol qilinadi. Ko‘rsatilayotgan xizmatlarning aksariyatini iste’mol qilgunga qadar o‘rganishning iloji yo‘q bo‘lib, ularning taklifi va iste’moli bir paytda ro‘y beradi. Turizm xizmatlari ko‘plab olimlarining diqqat markazida bo‘lib, bu xizmatlar nazariy jihatlari va rivojlantirish borasida turli fikr va yondashuvlar mavjud. Yuqorida soha olimlarining turizm xizmatlari sohasi rivojiga qo‘sghan hissasi xillma-xil hisoblanadi. Ularning umumiylarini turist va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan xizmatlar majmui sifatida yuqori baholanadi. Turizm xizmatlari yoki sayohatning yuzaga kelishi va rivojlanish evolyutsiyasiga ega bo‘lib, tarixiy jihatdan kishilik jamiyatining rivojlanish bosqichlariga mos keluvchi davrlarni ajratish mumkin Bular: qadimgi davr, o‘rtalik davr, yangi davr va hozirgi davrga muvofiq evolyutsion rivojlanish xususiyatlariga ega. Turizm sohasi jahon iqtisodiyotining serdaromad, kam xarajat sohalardan biri bo‘lib, qudratli integratsion soha sifatida nafaqat ko‘plab mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotining o‘sish sur’atidan tezroq rivojlanmoqda, balki xizmatlarning xalqaro eksportida ham uning ulushi oshib bormoqda. Turizm o‘zining ko‘p qirrali tarkibi, ko‘plab yondosh sohalari bilan birga hamnafas rivojlanishga imkon berib, jamiyat hayotining barcha sohalariga faol ta’sir o‘tkazib kelmoqda. Shu jihatdan aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishdagi muhim vosita sifatida qaralmoqda. Uning muhim ahamiyati jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Hozirgi sharoitda turizm xizmatlari milliy iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omillariga aylanish salohiyatiga ega, nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki ijtimoiy taraqqiyotga, madaniy va tabiiy merosni asrab-avaylashga, yo‘qolib ketayotgan qadriyat va an’analarni saqlashga ham yordam beradi hamda xalqaro va mintaqalararo munosabatlarni mustahkamlashga hissa qo‘shadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil, 03/23/837/0241-sodda, 155 – modda.  
<https://constitution.uz/oz/clause/index#section7>
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 7-iyuldagi O‘RQ-549-sodda “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,  
<https://lex.uz/uz/docs/4428097?ONDATE=14.05.2024>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PF-4861- son “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlan-tirishni ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagagi PQ-3217- son “2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
5. Mirziyoev SH.M. Ulkan sayyohlik salohiyatining yorqin e’tirofi //Xalq so’zi gazetasi 2023-yil 17-oktabr, №220 (8563)
6. Mirziyoev Sh.M. Ulkan ishonch va mas’uliyatning qadriga yetish, uni halol va sodiq xizmat bilan oqlash barchamizning muqaddas burchimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining birinchi majlisidagi nutqi // Yangi O‘zbekiston gazetasi № 235 (1295), 2024-yil 20-noyabr
7. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekistonimiz yangi Parlamenti bilan birga o‘z taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Oliy Majlis Qonunchilik

palatasining O‘zbekiston Respublikasi bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan majlisidagi nutqi // Yangi O‘zbekiston gazetasi № 236 (1297), 2024-yil 21-noyabr

8. Capone F. Tourist clusters, destinations and competitiveness: theoretical issues and empirical evidences. Routledge: Taylor & Francis Group, 2016, 203 p.;

9. Kotler P., Bowen J. Makens J. Marketing For Hospitality & Tourism Pearson International Edition 2014, USA.;

10. Commons, J. and Page, S. (2001). Managing Seasonality in Peripheral Tourism Regions: The Case of Northland, New Zealand. In T. Baum and S. Lundtrop (eds.), *Seasonality in Tourism* (pp.153-172). Oxford: Pergamon, Elsevier.;

11. <https://www.worldbank.org/en/topic/poverty/overview#1>

12. <https://www.unwto.org/ru/news/unwto-underscores-tourisms-importance-for-covid-19-recovery-in-meeting-with-the-king-of-spain>

13. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>

14. <https://www.unwto.org/tourism-data/un-tourism-tourism-dashboard>

15. [https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx\\_data\\_3333.p](https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_3333.p)